

## O'QUVCHILARNI MAKTABGA TAYYORLASH PSIXOLOGIK AHAMIYATI

*BUXORO VILOYATI ROMITAN TUMANI 36-MAKTAB PSIXOLOGI  
BOZOROVA ROBIYA RAXMONOVNA*

**Annostatsiya:** Ushbu maqola o'quvchilarni mакtabga tayyorlashda psixologik ahamiyati haqida

**Kalit so'zlar:** Maktab, psixologiya, o'quvchilar, ta'limga yondashuv

Kuzatuv va tahlillar shuni ko`rsatadiki, agar mакtabgacha ta`lim muassasasiga bormagan bola mакtabga chiqsa, uning boshlang`ich sinfdagi o`qish faoliyati yetarli darajada samarali bo`lmaydi. Ya`ni uning ta`limga moslashuvi sust kechadi, ijtimoiy munosabatlarga kirishishi, aqliy faoliyati sekin rivojlanadi. Bolada ko`pincha jismoniy, ruhiy jihatdan tayyor emaslik holati kuzatiladi. Bunday bolaning mакtabda maxsus tayyorgarlikdan o`tgan tengdoshi bilan boshlang`ich ta`limni olishi uning ruhiyatiga zo`riqish, uyalish, hadiksirash, o`ziga nisbatan ishonchsizlik kabi bir qator salbiy hislatlarni namoyon etadi va bu o`z navbatida uning ta`lim samarasiga ta`sir qiladi. Ta`lim olish motivatsiyasi, ilk o`quv ko`nikmalarishakllanmagan psixik jarayonlari rivojlanmagan bola o`zlashtirishda tengdoshlaridan orqada qoladi, o`qishga nisbatan qiziqishi so`nib, yakkalanib boradi. Bolalarni mакtabga qabul qilishdan oldin ularning qay darajada tayyorligini aniqlash lozim. Ushbu vaziyat nafaqat unga, balki butun oila zimmasiga mas`uliyati yuklaydi. Yangi turmush tarzi va faoliyati bolaning jamiyatda yangi mavqeni egallashi, kattalar va tengdoshlari bilan yangi munosabatlar o`rnatishni yuzaga keltiradi. 6-7 yosh bolaning mакtabga psixologik tayyorgarligini o`rganishda quyidagi psixologik – pedagogic nazorat ishlarini olib boorish lozim ;

- Bolaning atrof muhitga munosabati va bilimlar zaxirasi;
- mакtabga bo`lgan munosabati va rivojlanish darjasи;
- mustaqil fikrashi va nutqining rivojlangani;
- Emotsional - obrazli tasavvurning rivojlanish darjasи;
- Qo`l harakati motorikasining rivojlanish darjasи;

Yuqorida keltirilgan omillarni tarbiyachi va ota-onalar hamkorlikda nazorat qilishi zarur. Mакtabga tayyorlov guruhlarida bola faoliyatini kuzatish, yakka tartibda mashg`ulotlar tashkil qilish talab etiladi. Bunday tashqari, ota-onalar oilada quyidagilarni amalga oshirishi taqazo etiladi.

- Bola bilan birgalikda didaktik o`yinchoq va o`yinlar o`ynash;
- Oilada bola bilan birgalikda didaktik o`yinchoq va o`yinlar o`ynash;
- Oilada bola bilan ijodiy munosabatlar o`rnatish;
- Bolani atrofdagilar bilan muloqotga kirishishiga o`rgatish;

- Bolada “men” tushunchasining rivojlanishiga yordam berish;

Juda ko`p hollarda ota - onalar farzandining maktabga chiqishini “bolani maktabga boorish vaqtি keldi” yoki “yana bir yil o`ynab olsin” deb o`zlaricha belgilashadi. Qoidaga ko`ra, ota-onasi bolasini maktabga berishda o`z tajribasiga asoslangan holda ish ko`radi. Masalani maktabgacha ta`lim muassasasi tarbiyachisi yoki o`qituvchisi , ba`zan esa uydagi qarindoshlari bilimdon qo`snilari bilan muhokama qiladi. Ular bolani maktabga tayyorlashda uning bo`yi, og`irligi, o`qish va yozishga uquvini asosiy o`lchov deb o`ylashadi. Bunda bolaning psixologik tayyorgarligi esa hisobga olinmaydi. Aynan psixologik tayyorgarlik bola o`quv faoliyatining ichki xarakteristikasi sifatida o`quv motivi bilishga qiziqishini shakllantirishga yordam beradi. Bolaning maktabga psixologik tayyorgarligi nimadan iborat bo`lishi kerak? Bu yoshdagi bola uchun diqqat barqarorligi xarakterli bo`lib, xotira faol rivojlanadi, so`z boyligi ortib boradi, tafakkuri jadal rivojlanadi. Shuningdek, mazkur yoshda u tashqi ko`rinishlarni umumlashtiradi, predmetlarni sifati bo`yicha birlashtiradi, ulardan foydalanishda harakat usulini belgilaydi. Ular endi o`ziga tanish bo`lgan vazifada sabab – natijaviy aloqalarni tiklash qobiliyatiga ega bo`ladi. Eng muhim jismoniy rivojlanishi jadallahshadi bolalarning maktabga moslashishini ta`minlash lozim. Bu masalani hal etishning samarali yo`llari mavjud bo`lib, ular bolaning Yoshi individual xususiyatlariga mos bo`lgan rivojlantiruvchi o`yin va mashg`ulotlardir.Bunday mashg`ulotlarning mazmuni shundan iboratki, bolaning psixik rivojlanishi o`quv dasturlarini muvaffaqiyatli o`zlashtirishga asos bo`luvchi psixik funksiyalari va shaxsiy sifatlarini oldinga siljishiga olib keladi. Bolalarni maktabga psixologik tomondan tayyorlashda maktab va maktabgacha ta`lim muassasining hamkorligida ishlashi yaxshi samara beradi. O`qituvchi bolalarni maktab binosi bilan tanishtirishi, maktabgacha talim muassasasiga kelishi, savol-javoblar olib borishi, o`z navbatida tarbiyachi ham bolalar bilan sinfxonadagi partalarda o`tirib, turli mashqlar o`tkazishi maqsadga muvofiqdir. Bularning barchasi bolalarning maktab haqidagi tasavvurlarini boyitib, o`qishga ishtiyoqini yanada oshiradi. O`yin bolalarning kelajakdagi o`quv va mehnat faoliyati, kishilarga munosabatning qay darajada shakllanib borishini belgilaydi. O`yin bolada bilish faoliyatini rivojlantiradi, bola qancha faol o`ynasa, u maktabda shuncha yaxshi o`qiydi. Ma`lumki ushbu faoliyat maktabgacha yosh davrda yetakchi hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tashkilotchilik qobiliyatini shakllantirish dolzarb psixologik-pedagogik masala sanaladi. Shuningdek, bu kata ijtimoiy ahamiyatga ega. Chunki tshkilotchilik qobiliyatiga ega bo`lish, kelajakda o`z kasbiy faoliyatini samarali amalga oshira oladigan shaxs shakllanishiga kata yordam beradi. Bu esa bolalikning ilk davridan oilada va uzlucksiz ta`limning barcha bosqichlarida amalga oshirilishi lozim.

**Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Pedagogik va psixologik masala kitobi
2. Edu.uz
3. Ta'lim va tarbiya kitobi